




**Bankni strategik rivojlantirish
departamenti**

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh

30 mart, 2026 yil

SQB,NBU,AGRO BANK va IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi (20 oktabr 2025 yildan 30 mart 2026 yilgacha Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra, foizlarda)



SQB evrobondlarining daromadliligi

2024-yil iyul oyida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,892% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich ko'tarildi va 7,034% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 5,79% – 7,034% gacha o'zgarib turdi.

2025-yil oktyabr oyida SQB muvaffaqiyatli ravishda Londondagi fond birjasida xalqaro qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT1) obligatsiyalarini joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,276%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 9,594% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich ko'tarilib va 9,679% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 8,978% – 9,679% gacha o'zgarib turdi.



NBU evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,456% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 6,605% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,612-6,605% gacha o'zgarib turdi.



IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi 6,477% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 6,707% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,733-6,707% gacha o'zgarib turdi.




AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi 6,917% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 7,055% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,067-7,055% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi



Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 3,62-3,73% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 3,62% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib ko'rsatkich ko'tarilib va — 3,65% darajasida qoldi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,127% (3 oylik) va 2,504% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,589% (6 oylik) va 2,2% (3 oylik) ni tashkil etdi.


O'zbekiston valyuta bozori

O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo 698,8 million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan 542,2 million dollarga kamroq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi 12 196 so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib ko'tarilib 12 195 so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha 3,5-4,5% ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (9,77%), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon devalvatsiya 1,59% ni tashkil etdi.

Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi




30.03.2026 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs *Poytaxt bank*da qayd etilgan – 12 195 so'm. Boshqa banklarda esa kurs 12 200 – 12 270 so'm atrofida o'zgarib turdi.



Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs *Asia Anor bank*da qayd etilgan – 12 170 so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs 12 165 – 12 130 so'm atrofida bo'lgan.

Valyuta juftliklariga oid sharh (Refinitiv Eikon)

USD-RUB dinamikasi




USD/RUB o'zgaruvchanligicha qolmoqda

23–27 mart kunlari oralig'ida USD/RUB valyuta juftligi turlicha yo'nalishda harakatlandi. Haftaning boshida kurs 83,4–83,5 atrofida saqlanib turgan bo'lsa, 25 mart kuni 81,3 gacha pasaydi. Shundan so'ng tiklanish kuzatilib, kurs 82,8 gacha ko'tarildi va 27 martga kelib 82,4 darajasida mustahkamlandi.

Joriy harakatlar bozordagi beqarorlik hamda talab va taklif muvozanatini aks ettirmoqda. Qisqa muddatli istiqbolda o'zgaruvchanlik unsurlari bilan yonlama harakat saqlanib qolishi ehtimoli yuqori.

RUB-YUAN dinamikasi




RUB/CNY asta-sekin zaiflashishni ko'rsatmoqda

23–27 mart oralig'ida RUB/CNY juftligi pasayish tendensiyasini namoyish etdi: 11,7 darajasidan boshlab kotirovkalar bosqichma-bosqich 11,2 gacha tushdi. Davr o'rtasida qisqa muddatli barqarorlashuv kuzatilgan bo'lsa-da, u umumiy yo'nalishni o'zgartirmadi. Pasayish kursning yuanga nisbatan rubl mustahkamlanayotganini aks ettiradi.

Yaqin istiqbolda bozor ushbu tendensiyani mo'tadil o'zgaruvchanlik bilan davom ettirishi mumkin.

EUR-USD dinamikasi



EUR/USD bosim ostida: dollar pozitsiyalarini kuchaytirmoqda

23–27 mart kunlari EUR/USD valyuta juftligi AQSh dollari kuchayishi fonida asta-sekin pasaydi. Davr boshida kurs 1,1639–1,1628 atrofida nisbatan barqaror bo'lib, bu talab va taklif muvozanatini ko'rsatgan edi.

Biroq 26 martdan boshlab yevroga bosim kuchaydi: kotirovkalar 1,1572 gacha tushdi, 27 martga kelib esa 1,1547 darajasiga yetib, haftaning mahalliy minimumini yangiladi. Ushbu pasayish investorlarning dollar aktivlariga qiziqishi ortgani, shuningdek makroiqtisodiy omillar va pul-kredit siyosati bo'yicha kutilmalar ta'siri bilan izohlanadi.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil

Oltin narxlar dinamikasi
(bir untsiya uchun,
AQSh dollarida)




Oltin mart oyi oxirida ham o'zgaruvchanligini saqlab qolmoqda.



23–27 mart oralig'ida oltin bozori turlicha yo'nalishda harakatlandi. 23 mart kuni kotirovkalar 4405,8 darajasida bo'lgan bo'lsa, 24 martda 4472,6 gacha o'sdi. 25 mart kuni esa 4505,0 darajada mahalliy maksimum qayd etildi. Biroq 26 martda korreksiya kuzatilib, narx 4379,0 gacha tushdi — bu ushbu davrdagi eng past ko'rsatkich bo'ldi. 27 martga kelib bozor tiklanib, 4492,5 darajaga yetdi va pasayishning katta qismini qopladi.

Ushbu dinamika bozorda volatillik yuqori ekanini va barqaror trend shakllanmaganini ko'rsatmoqda. Qisqa muddatli istiqbolda joriy darajalar atrofida konsolidatsiya kuzatilishi mumkin.

Brent nefti narxlar dinamikasi
(bir barrel uchun,
AQSh dollarida)




Brent nefti narxlar qisqa muddatli korreksiyadan so'ng o'sishni namoyish etmoqda



2026 yil 23–27 mart kunlari oralig'ida Brent nefti narxi bir barrel uchun 99,94 dan 112,57 gacha ko'tarildi. Eng past daraja 23 mart kuni qayd etilgan bo'lsa, 24 martda kotirovkalar 104,49 ga yetib, o'sish davom etdi.

Brent bozori yuqori volatillik sharoitida qisqa muddatli o'sish bosqichida qolmoqda. Qo'llab-quvvatlash darajasi taxminan bir barrel uchun 108 atrofida, qarshilik darajasi esa 114 atrofida joylashgan. Yaqin kunlarda narxlarning ushbu diapazonda konsolidatsiya qilishi eng ehtimoliy ssenariy hisoblanadi.

TTF gaz narxlar dinamikasi
(megavatt-soat uchun,
AQSh dollarida)



TTF gaz narxlarida o'sishdan so'ng mo'tadil korreksiya kuzatilmoqda



2026 yil 23–27 mart kunlari oralig'ida TTF gaz so'nggi o'sishdan keyin mo'tadil korreksiyani namoyish etdi. Narx 23 mart kuni 66,1 USD/megavatt-soatdan 25 martga kelib 60,2 USD/megavatt-soatgacha pasaydi, hafta oxiriga kelib esa taxminan 63 USD/megavatt-soat atrofida barqarorlashdi.

Narxlarning pasayishiga asosiy omillar sifatida Yevropada ob-havoning ishi tufayli talabning kamayishi, gaz zaxiralarining yuqori darajada bo'lishi hamda suyultirilgan tabiiy gaz yetkazib berishning barqarorligi xizmat qildi. Volatillik yuqori darajada saqlanib qolmoqda, bozor esa ob-havo o'zgarishlari va geosiyosiy voqealarga sezgir bo'lib qolmoqda.

Yangiliklar

Fintex giganti Revolut AQSHda bank litsenziyasini olish uchun rasmiy ariza topshirganligi — bu kompaniyaning Amerika yirik banklari bilan to'laqonli raqobatga kirishish yo'lidagi ulkan qadamidir. Agar ushbu ariza ma'qullansa, Revolut dunyoning eng yirik moliya iqtisodiyotida to'g'ridan-to'g'ri depozitlar jalb qilish va kreditlar berish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ushbu voqea moliya bozorini tubdan o'zgartirishi va raqamli banking sektorida raqobatni kuchaytirishi kutilmoqda. Moliyaviy tahlilchilar buni 2026-yilning bank sohasidagi eng muhim voqealaridan biri deb hisoblamogda.



VTB korporativ mijozlar uchun yangi xizmatlarni ishga tushirmogda VTB Bank biznes mijozlar uchun mahsulotlar qatorini kengaytirdi, jumladan kreditlash va hisob-kitob hamda kassa xizmatlarini taklif etish imkoniyatini yaratdi.

Bank iqtisodiy faollik oshayotgan fonida korporativ mijozlarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirmogda.



Tinkoff keshbekli kredit kartalarini rivojlantirmogda Tinkoff Bank yangi kredit kartalarni e'lon qildi, ularning keshbek va bonus dasturi kengaytirilgan.

Ma'qsad — yosh auditoriyani jalb qilish va raqamli savdoni oshirish.



BNP Paribas

Bank Yevropadagi tiklanuvchi energiya loyihalariga investitsiyalar hajmini oshirishini e'lon qildi va "yashil" moliyalashtirish uchun milliardlab yevro ajratishni rejalashtirmogda.

